

II-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha

2022 y. 26 yanvar

10-son

Armasoy tumani

Ushbu shartnomani "jizzax suv ta'minoti" MCHJ Armasoy tuman filiali, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi **BEGMATOV RUSTAM SADIKOVICH** shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Armasoy tuman tibbiyot birlashmasi, nizom asosida ish olib boruvchi rahbar Abdusattarova Muxabbat, ikkinchi tomondan quyidagilar haqida tuzdilar:
(Ф.И.О.)

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq II guruh iste'molchisi (Keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berish 4075 so'm narx bo'yicha 1621 m³ni:

1m³ ichimlik suv uchun 3500 so'm (+QOS 15%), + 50 so'm (maksus ustama xaq)ni;

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 6605575 (Olti million olti yuz besh ming besh yuz yetmish besh) so'mni tashkili qildi (summa yozuv bilan). Shu jumladan, bujdet mablag'laridan 6605575 (Olti million olti yuz besh ming besh yuz yetmish besh) so'm, bujdetdan tashqari mablag'laridan 0 so'm to'lanishi ko'zda tutilgan.

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlar uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan (bujdet tashkilotlaridan tashqari) avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish sharti bilan yoki Ta'minotchi tomondan hisob varaqasi (sechot-faktura)lar taqdim etish orqali, shuningdek, bujdet tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi Molriya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'limlari orqali o'zaro hisob-kitob qilishga o'tkazilgan mablag'lar bilan Ta'minotchi taqdim etadigan sechot-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'ZDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, har oying 10 sanasigacha 70 foizlik oldindan haq to'lash tartiqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalar"ga (keyinchalik matnda - Qoidalar) deb yuritiladi) rioya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomondan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etiluvchi hujjatlarga rioya qilishi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomondan tasdiqlanadigan maksus ustama haqini 1m³ ichimlik suv uchun 4075 so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun 4075 so'm to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subisite'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. Iste'molchi bilan subisite'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomondan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar Iste'molchi va unga ulangan subisite'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subisite'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

Iste'molchi (subisite'molchi)ga berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi.

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan Iste'molchi o'zi mansub guruhdagi subisite'molchilarga ulangan bo'lsa, subisite'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar asosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, Iste'molchi, o'zi ishlatgan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarni amalga oshirishda subisite'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarini ham inobatga olgan holda hisob-kitob qiladi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi isisino holatlarda:

a) irrigatsiya suvi bo'lmaganda;

b) ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomondan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'1 qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan Iste'molchi xo'jalik-site'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jaryonlari uchun foydalanadi.

2.6. Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomondan tekshirilgan va tang'alangan bo'lishi va suv o'ljash tarmog'i suv ta'minotchi tashkilot tomondan plombalanishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvini hisobga olish asbobini yechishi, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

2.7. Iste'molchiga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'ljash asbobining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda Iste'molchi bilan kelishiladi.

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'ljovlarning texnik tavsifnomasida yo'1 qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdordagi suv iste'mol qilingan taqdirda Ta'minotchi suv o'ljash uzeli ni amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbobga (berilgan kundani keyingi 30 Kalendar kun ichida) qayta jilozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirda suvdan foydalanish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblarni ishga tushirish, almashirish, yangi subisite'molchilarning ulanishi Iste'molchi tomondan faqat Ta'minotchi taraftidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiva asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yori, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi Ta'minotchi tomondan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgaragan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z

kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarini amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'rtasidagi kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalar)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanadi, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa Iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Tarafdarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'ZDS 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

y) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdordagi jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifati ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatless ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

a) shartnoma shartlarini bajarishi;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv

bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombaarning saqlanishini nazorat qilish, yer usti suv oqimlarining quduqlar yonidan oqizib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlarga kirib borish yo'laklarini tirdand qilmaslik, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishga yaroqiligi kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashiqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biror-bir inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'zbohimchilik bilan qurilgan inshootlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlarini aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar berish;

d) suvni hisobga olish asboblari va yaqqol ko'rinishda turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butilgiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron-poçtasi orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy oying 23-25-sanasida suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy oying so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlari Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali yohud Ta'minotchi joylashgan manzilga borgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlar oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subiste'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

i) ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslanish konsentratsiyasini normatidagi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorlargacha yetkazgan holda oldindan tozalanishni ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmog'iga oqiziladigan oqova suvlar sifati bo'yicha monitoring o'rnatish;

k) o'z hududida joylashgan suv o'lash uzeli, kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdagi ishlarni bajarishga begona shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchi vakilining ishtirokisiz quduqlar (kameralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda Iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yomg'ir va erigan qor suvlarining oqizilishiga yo'l qo'ymaslik (Iste'molchiga bog'liq bo'lmagan fors-majior holatlarda oqizilishi bundan mustasno). Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizsiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar berish.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) Ta'minotchi, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a.a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchi talablari Iste'molchi tomonidan bajarilmaganida;

a.b) Ta'minotchi mansabdor shaxsi Iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarni nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari gavyd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda Iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganida;

a.v) Ta'minotchi tomonidan Iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

a.g) Iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zbo'shimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

a.d) Iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

a.ye) Iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

a.yo) Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganida va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganida.

b) Ta'minotchi quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

b.a) Ta'minotchining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b.b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b.v) avariya holatlarida;

b.g) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarishi;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borishi;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish holatlaridan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarni tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borishi;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkilloshirishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblarni o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizsiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

i) shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste'molchiga penya to'lash;

y) Iste'molchining shartnoma shartlariga rioya emmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilishi;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida Iste'molchiga axborot berishi;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida Iste'molchini uzilishlar boshlangungaacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirishi;

m) ichimlik suvni iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan Iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali xabardor qilishi;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tartifidagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilishi;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

IV. Tarafdarning javobgarligi

4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarga hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) Iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'ZDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) sifati ichimlik suv yetkazib berishi;

v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etishi;

g) suvni hisobga olish individual asboblarni o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlari nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

d) Iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berishi;

e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarini bajaraganlik.

4.1.1. Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtaganda;

b) Iste'molchining aybiga ko'ra.

4.1.2. Ta'minotchini, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengib bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari Iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbotlansa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

4.1.3. Tozalash inshootlari, nasos stansiyalari quvvatining yoki kommunal suv quvvatlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida muntaзам ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, Iste'molchini unga suv berilishi rejalari haqida xabardor qilib, alohida tumanlarga suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'g'ri qilyotgan sabablarni barafar etishga doir barcha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvni hisobga olish asboblari mavjud bo'lmaganda - suvni berish soatlari mutanosib ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.

4.2. Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) kanalizatsiya tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosisidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yarqoqliligi va normal texnik holatdagi uchun;

b) O'ziga qarashi - sanitariya - asboblari, kanalizatsiya - tarmoqlari, inshoot - va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yo'plimasligi, nosoz texnik holat tufayli Iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avariya (tugilib qolish, suv bosis) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;

v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish asbobi, aylama linriya zulfirni, yong'in zulfirlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufda bo'lgan hamda Ta'minotchi tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlanishi uchun;

g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.

4.3. Suvni hisobga olish asbobi va strovl zulfiridagi plombaning saqlanmagani va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnoma tuzilgan sanadan e'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Plombalangan yong'in zulfirlari va gidrantlardagi plombalarni uzishga quyidagi hollarda yo'1 qo'yiladi:

a) Ta'minotchi bilan kelishilgandan so'ng suv ta'minotining yong'inga qarshi tizimi faoliyati tekshirilganda va yong'in nasoslari sinovdan o'tkazilganda;

b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in xavfisizligi organlari tomonidan yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining sinovlari o'tkazilganda.

4.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda iste'molchi 24 soat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfirlarni plombalash uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishi shart.

4.6. Suv quvuriga o'zbo'shimchalik bilan ulangan, sovuv suvni hisobga olish asboblarning buzilishiga ataylab yo'1 qo'ygan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblari tashqaridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun

hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va ogova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, xar oying 10 sanasiga qadar 70 foizlik oldindan haq to'lash tartibida amalga oshirishi lozim.

5.2. Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarning kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasi 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summanning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.3. Ta'minotchi shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarlarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiy bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4. Iste'molchi ichimlik va ogova suv xizmatlari uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtida to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zbo'shimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ulashda Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirilmay tarmoqqa qayta ulanadi.

5.5. Ogova tizimiga kelib tushuvchi ogova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga ogova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koeffitsiyentga chaqo'llaniladi.

5.6. Obyekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy ogova tizimidan boshqa ogova tashlash manbalariga ega bo'lgan hollatlarda Ta'minotchi tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga ogovalarni oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarashi bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

VI. Alohida shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgariganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplamagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik obyektlarining yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Quyidagi hollatlarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi:

a) agar Iste'molchi suvni hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa;

b) suv o'lash asbobi yoki moslamasi Ta'minotchida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa; v) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zbo'shimchalik bilan ulanib olinganda (o'zbo'shimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish

dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek agar o'zboshimchalik bilan ulanish Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'zboshimchalik bilan ulanish kuniyan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq uch oylik muddatdan ko'p bo'lmagan holda);

g) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchi aybi bilan ishdan chiqqan (suvni hisobga olish asbobi sifatiz suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyqa yig'ilishi natijasida olish chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno), singan, ishdan chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno), singan, buzilgan va bu haqda Ta'minotchi xabardor qilingan taqdirda (bunda sarflangan suv miqdori, so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan to yangi suvni hisobga olish asbobining o'natilish sanasigacha, ammo uch oydan oshiq bo'lmagan muddat uchun hisoblanadi);

d) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchiga Ta'minotchi tomonidan ogohlantirish xati yuborilganidan so'ng belgilangan muddatda davriy qiyoslovdan o'tkazilmaganda.

6.3. Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'racha sarf bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyektni loyihalashirish va qurishni boshlash uchun) loyihaga muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlarni mavjud bo'lmagan yoki muddati o'tgan hollar Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. Iste'molchi ichimlik va ogova suv tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan xokim qarori, kadastir hujjatlari va shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlarigan ichimlik suvi va qabul qilingan ogova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya hisoblaydi, ammo uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.7. Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tizimiga jala suvlari ruxsat etilmagan holda oqizilgan taqdirda iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish ogova suvlarini oqizganligi uchun amaldagi tarflarga nisbatan qo'shimcha uch barobarlik ko'effitsiyent tatbiq etiladi. Hisob-kitob tashkilotning maydoni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarish ogova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normaliydan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari hisoblash tartibiga muvofiq kadastir va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalga oshiriladi.

6.8. Ogova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'1 qo'yiladigan cheklangan miqdoridan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normaliyatlariga muvofiq) ortiqcha ogova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqilanaadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normaliydan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarni hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tarflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda Ta'minotchiga u joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotching telefon raqami, elektron pochta yohud pochta xizmati orqali taqdim etilishi

kerak. E'tiroznomaga Iste'molchini to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summamni to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

E'tiroznomaga Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular asosli deb topilsa, to'langan ortiqcha summa keyingi to'lov hujjati hisobiga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznomaga ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, u taqdim etgan telefon raqami (shu jumladan mazkur telefon raqamining teleqram ijtimoiy tarmog'idagi profil) yoki pochta xizmati orqali, e'tiroz ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda xabardor qilinishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi xabardor qilingansa, masala iste'molchi foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va shartnomaga oid boshqa holatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi orqali hal qilinadi. Taraflar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishimasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Iste'molchi joylashgan manzilidagi tegishli sudlar orqali hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'1, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profil) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'yimlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va taraflar tomonidan imzolashni shart.

X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

« TA'MINOTCHI »

« ISTE'MOLCHI »

„Jizzax suv ta'minoti“ MCHJ Arnasoy tuman filiali

Manzil O.Vodiy MEY, Y.Zoxtdov ko'chasi 13 uy
Tel: 72-372-12-98, faks 72-372-12-98

g'az/h-r _____

Bank Ipoteka bank Jizzax shaxar filiali

Bank kodi 00122 STR 200345016

XHTUT 03894914

Shaxsiy raqam

Shaxsiy h-r 22638 000 300 304 533 542

Bank kodi _____ STR _____

Rahbar _____ R.Begmatov
M.O. (f.i.o. imzo)



Arnasoy tuman Tibbiyot birlashmasi

Manzil Arnasoy tuman Bobur MEY

Tel: _____ faks _____

g'az/ _____

h-r 23402000300100001010

Bank Markaziy bank Toshkent shahar XKKM

Bank kodi 00014 STR 201122919

XHTUT 91511 STR 200331571

Shaxsiy raqam

Shaxsiy h-r 1000228608201 7073101 054001

Arnasoy tuman G'aznachilik bo'limasi

(G'aznachilik bo'limasi nomi)

Rahbar _____ M.Abdusattarova
M.O. (f.i.o. imzo)

